SIRDARYO VILOYATI YANGIYER SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-oktabr | 250-9-132-Q/24 | Yangier shahar hokimligi

Yangiyer shahrida 2025-yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g’risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 39-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida Yangiyer shahar hokimligi mavjud korxona, muassasa va tashkilotlar xodimlarining ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan (2513 nafardan) 91 kishini tashkil etadigan 7 foiz miqdoridagi, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari,nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 0,5 foiz (4 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlari, kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari hamda texnikumlarini tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun 0,5 foiz (26 kishi);

“Mehribonlik uyi”bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 0,5 foiz (1 kishi);

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi,Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya,Davlat xavfsizlik xizmati qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 0,5 foiz (4 kishi);

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3 foiz (50 kishi);

pensiyaoldi yoshdagi shaxslar uchun 0,5 foiz (2 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga koʻra oʻziga nisbatan tibbiy yoʻsindagi majburlov choralari qoʻllanilgan shaxslar uchun 0,5 foiz (1 kishi);

oilaviy (maishiy) zoʻravonlik natijasida jabrlanganlar ayollar uchun 0,5 foiz (1 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shahxslar uchun 0,5 foiz (1 kishi) miqdorida ish oʻrinlarining zaxirasi belgilansin.

2. Qarorning 1-bandida koʻrsatilgan talablarga javob beradigan kasb va mutaxassisliklar boʻyicha 2024-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun band qilib qoʻyilgan ish oʻrinlarini barpo etish vazifasi yuklatilgan tashkilotlar, korxona va muassasalar roʻyxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu toifadagi shaxslar uchun ish oʻrinlari xodimlar tomonidan oʻzlarining mehnat majburiyatlarini toʻsiqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya va gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq boʻlishi belgilansin.

Shu jumladan;

oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan bolalarni tarbiyalayotgan, nogironligi boʻlgan bolalari bor yolgʻiz ota yoki onaga, shuningdek koʻp bolali oilalarning ota-onalari uchun - bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlarni bajarilishini birga qoʻshib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega boʻlgan ish oʻrinlari;

umumiy oʻrta va oʻrta maxsus ta’lim tashkilotlari, kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega boʻlgan yoshlar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq boʻlgan ish oʻrinlari;

Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmatining qoʻshinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan boʻshatilgan shaxslar uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos boʻlgan ish oʻrinlari;

nogironligi boʻlgan shaxslar uchun - mehnat sharoitlari boʻyicha attestatsiyadan oʻtkazilgan va xodimga ularning sogʻligi va mehnat faoliyatiga toʻgʻri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini toʻsiqsiz bajarish imkonini beradigan ish oʻrinlari;

pensiya oldi yoshdagi shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga mos boʻlgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish oʻrinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga koʻra oʻziga nisbatan tibbiy yoʻsindagi majburlov choralari qoʻllanilgan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish oʻrinlari;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan, xarakterli talablarga

muvofiq bo‘lgan mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan ish o‘rinlari hamda yuqorida ko‘rsatilgan barcha toifalar uchun mos sharoitlar yaratilishi lozim.

4. Korxona, tashkilot va muassasalarga:

ish o‘rinlarining eng kam miqdori (kvota bo‘yicha) bo‘yicha ish o‘rinlarini tashkil etilganligi to‘g‘risida ma’lumotlarni har chorakda;

ish o‘rinlariga (kvota bo‘yicha) ishga joylashganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har oyning 25 sanasiga qadar shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga topshirish vazifasi yuklatilsin.

Qarorning 1-band 2-xatboshida ko‘rsatilgan talablarga javob beradigan kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha korxona, muassasa va tashkilotlar kesimidagi ish o‘rinlari ilovaga muvofiq tashkil etilsin.

6. Tashkilot, korxona va muassasalarning rahbarlari, O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlarini belgilangan tartib va muddatlarda tashkil etilishini ta’minlasinlar.

7. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qaror ijrosi bajarilmagan holatda, shuningdek, ularni ishga qabul qilishda asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkinligi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

8. Ushbu qarorda belgilangan muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlarga:

muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun belgilangan ko‘rsatkichdan ortiqcha, shu jumladan ish uchastkalari (sexlar) tashkil etish uchun turar joy bo‘lmagan binolarni birinchi navbatda ajratish;

mahalliy davlat hokimiyatiga berilgan vakolatlar doirasida Qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa imtiyozlar berilishi mumkinligi belgilansin.

9. Yangiyer shahar kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi besh kunlik muddat ichida mazkur qarorni ilovasida ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin.

10. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan sanasidan boshlab kuchga kiradi, mazkur qaror to‘liq matni “Yangiyer hayoti” gazetasida e’lon qilinishi ta’minlansin.

11. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan shahar hokimining 2023-yil 31-oktyabrdagi 237-9-132-Q/23-sonli qarori 2025-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Kurbonov) hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (U.Doliyev) zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **O.Nosirov**

Yangier shahar hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
250-9-132-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2025 yilda Yangiyer shahri bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish

DASTURI

T/r	Korxona va tashkilotlar nomi	Topshiriq belgilangan korxonalar soni	Ularda ishlovchilar soni	Band qilingan ish o‘rinlari soni JAMI	шу жумладан								
					nogironligi bo‘lgan shaxslar	pensiyaoldi yoshidagi shaxslar;	o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar;	“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari;	oilaviy (maishiy) zo′ravonlik natijasida jabrlanganlar ayollar	odam savdosidan jabrlanganlar;
1	SANITARIYA - EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI BOSHQARMASIN	1	44	**2**	1		1						

	ING YANGIYER SHAHAR BO'LIMI												
2	YANGIYER SHAHAR XALQ TA'LIMI BO'LIMI	1	47	**1**				1					
3	SIRDARYO VILOYATI FTIZIATRIY A VA PULMONOLOGIYA MARKAZI	1	213	**4**	1	1		1	1				
4	Yangiyer tibbiyot kolleji	1	86	**1**	1								
5	YANGIYER MURUVVAT NOGIRONLIGI BO`LGAN SHAXSLAR UCHUN AYOLLAR INTERNAT UYI	1	100	**4**	1			1			1		
6	"BARKAMOL AVLOD" bolalar markazi	1	22	**1**	0			1					
7	Madaniyat bo'limi-shahar madaniyat va aholi dam olish markazi	1	26	**1**	0			1					
8	4-son bolalar musiqa va san'at maktabi	1	55	**2**	1			1					
9	2-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	1	65	**2**	1			1					

10	3-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	1	81	**2**	1			1					
11	10-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	1	45	**2**	1			1					
12	11-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	1	51	**1**	1								
13	1-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	1	86	**1**	1								
14	6-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	1	60	**1**	1								
15	4-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	1	72	**1**	1								
16	shahar obodonlashtirish boshqarmasi	1	151	**5**	1	1	1			1			1
17	"SHIRINTOY" nomli 6-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	86	**1**	1								
18	1-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	1	24	**2**	1			1					
19	5-sonli maktabgacha	1	32	**1**	0			1					

	ta'lim muassasasi												
20	13-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	22	**1**	0			1					
21	12-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	32	**2**	1			1					
22	3-maktabgacha ta'lim muassasasi	1	30	**1**				1					
23	4-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	32	**1**	1								
24	10-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	28	**1**	0			1					
25	11-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	32	**1**	1								
26	2-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	35	**2**	1			1					
27	'ELEGANT FIBER TEXTILE"	1	296	**5**	3		1					1	

	MCHJ												
28	'ECO WOOD PLYUS" MCHJ	1	63	**6**	4		1	1					
29	'Evro-Aziya-Industriya" MCHJ	1	28	**2**	2								
30	'Mos-Yan-teks" MCHJ	1	43	**2**	1			1					
31	'Polimer-Binokor" MCHJ	1	72	**5**	2			2	1				
32	Ulug`bek-Yangiyer-Qurilish' MCHJ	1	68	**4**	2			1	1				
33	"SHAX-YAN-TRANS-SERVIS" MCHJ	1	22	**1**	1								
34	"YANGIYER SANATORIYSI" MChJ	1	69	**4**	2			1	1				
35	"INTERGRAIN" MCHJ	1	38	**4**	2			2					
36	"YANGI-METAN-GAZ" MCHJ	1	24	**1**	1								
37	"INTER-TRADING-GROUP" MCHJ	1	42	**3**	2			1					
38	"SABR SHUKUR" MCHJ	1	36	**3**	2			1					
39	"SULPAK KOMPUTERS" MCHJ	1	33	**2**	2								
40	"BUNYODKOR"	1	22	**1**	1								

	MCHJ												
41	"YANGIYER FLOUR TRADING" MChJ	1	22	**1**	1								
42	"BELLIS-WATER" MCHJ	1	21	**1**	1								
43	"ASIA-SCOTCH" MCHJ	1	21	**1**	1								
44	"TRANS-IMKON-SERVIS" MCHJ	1	36	**1**	1								
Shahar bo‘yicha jami hammasi		**44**	**2513**	**91**	**50**	**2**	**4**	**26**	**4**	**1**	**1**	**1**	**1**